

FARG`ONA VILOYATI SHAROITIDA YUQORI VA SIFATLI KARTOSHKA YETISHTIRISHDA QATOR ORALARI KENGLIGI VA PARVARISHLASHNI HOSILDORLIGIGA TA`SIRI

G. O`runboyeva

Ilmiy Rahbar

Abdullayev Xamidjon Obidjon o`g`li

Miraxmedov Xasanjon Raxmatullo o`g`li

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg`ona viloyati sharoitida yuqori va sifatli kartoshka yetishtirishda qator oralari kengligi va parvarishlashni hosildorligiga ta`siri, kartoshkaning navlari, ekish uchun nav tanlash, tuproqni ishlash, urug`ni ekishga tayyorlash kabi ma`lumotlar keltirilgan

**KALIT SO`ZLAR:** dastlabki ishlov berish, Kosmos nav, ekish normasi, O`rta pishar o`suv davri, qahrabo kislotasi, kultivatorlar

KIRISH

Qishloq xo`jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli maxsulot olishni ta`minlaydigan yuqori madaniyatli dehqonchilik zamirida o`simliklarning biologik xususiyatlari, joylardagi tuproqning unumdorligi va iqlim sharoitlarlardan hamda ilmiy asoslangan qishloq xo`jalik ekinlarini etishtirish texnologiyalaridan to`g`ri foydalanish yotishi kerak. Hozirgi kunda kartoshka etishtirishning zamonaviy texnologiyasi quyidagi asosiy: joylardagi tuproq iqlim sharoitlarga mos keladigan qimmatli xo`jalik-biologik xususiyatlarga ega bo`lgan kartoshka turlari va navlarini tanlash, almashlab ekish, ekish uchun o`tmishdosh ekinini tanlash, tuproqqa ishlov berish tizimi, o`g`itlash, urug`chilik, urug`larni ekishga tayyorlash, ekish usuli va muddatlari, ekish normasi va ekish chuqurligi, begona o`tlardan, kasalliklardan va zararkunandalardan himoyalash, ekinlarni parvarishlash, hosilini yig`ishtirish va ularga dastlabki ishlov berish kabi ishlarni hamda ularni amalga oshirishda qo`llaniladigan mashinalar tizimi va boshqalarni qamrab oladi.

ASOSIY QISM

Navlar. O`zbekistonda ekish uchun Davlat reestriga kiritilgan navlar: Sante, Aqrab, Alvara, Agane, Baqro 30, Beluga, Bimondo, Bolero, Viktoriya, Diamant, Quvonch 1656 M, Latona, Marfona, Palma, Umid, Hamkor-1150, To`yimli, Fazan, Fresko, Esprit,

Romano, Kardinal, Draga. Tezpishar navlar 60-65, ertagi-o'rtacha 70-80, o'rtapishar 90-100, o'rtagi kechki 110-120, kechpishar 130-150 kunda pishib yetiladi.

Almashlab ekishdagi o'rni, nav tanlash. Kartoshka uchun eng yaxshi o'tmishdoshlar – kuzgi g'alla ekinlari, bir yillik dukkakli o'tlar, g'o'za, poliz, piyoz. Kartoshkani tamaki, pomidor, boyimjon, qalampir singari ituzumdoshlar oilasiga kiruvchi ekinlardan keyin joylashtirish yaramaydi. Bedadan keyin ikkinchi yili joylashtirish tavsiya etilmaydi.

Ertagi kartoshka yetishtirish uchun o'suv davri 70-90 kunlik tez pishar va o'rta pishar – Zarafshon, Nevskiy, Ogonek, Sante, Ramona, Marfona, Kondor, Binella, Kosmos navlari tanlanadi. O'rta pishar o'suv davri 95 kun va undan ortiq bo'lgan navlar ertagi kartoshka hosili yetishtirish uchun yaramaydi. Ularda tuganaklar hosil bo'lishi yozning issiq davriga to'g'ri keladi.

Tuproqni ishlash. Ertagi kartoshka ekiladigan dalalarga kuzda 2040 t ga chirigan yoki yarim chirigan go'ng, 90-150 kg fosfor, 60-80 kg/ga kaliy tuzi shaklida solinib PN-3-35, PYa- 3-35 rusumli pluglar bilan 28-30 sm chuqurlikda kuzgi shudgor qilinadi.

Qish davrida yog'ingarchiliklar ta'sirida tuproq zichlashib qolgan bo'lsa dala chizellanadi, boronalanadi, zarur bo'lganda molalanib yer ekishga tayyorlanadi.

Urug'ni ekishga tayyorlash. Urug'larni ekishga tayyorlashda, avvalo ular saralanadi, lat yegan, kasallangan tuganaklar terib olinadi. Ekishga vazni 30, 50, 80 g bo'lgan tuganaklardan foydalaniladi. 80 g vazndan ortiq tuganaklar o'rtasida uzunasiga kesilib 100 l suvga 5-6 kg TMDT, 2 g qahrabo kislotasi, 50-100 g bor kislotasi, marganes sulfat, mis kuporosi, 4 kg ammosfos qo'shilgan eritmada ivitilsa hosildorlik 11-20 % oshadi (Ostonaqulov, 1997). Urug'lik tuganaklar 12-15 kun davomida 12-20 °S haroratda sernam qorong'i joyda saqlanadi.

Kartoshka urug'ini nishlatish 25-30 kun davomida 12-15 °S haroratda, yorug' va yaxshi shamollatiladigan binolarda o'tkaziladi. Nishlatish qorong'i joyda o'tkazilsa uning davomiyligi 15-17 kunga qisqartiriladi va bunda nishning uzunligi 0,5-2 sm dan oshmasligi kerak. Nishlatishda urug'lar 2-3 qatlam qilib yoyiladi. T. Ostonaqulov ma'lumotlariga ko'ra nishlatib ekilgan urug', nishlatmasdan ekilgan urug'larga nisbatan 10-12 kun erta pishadi va hosildorligi 18-25 % oshadi.

Ekish usuli va muddati. Ertapishar kartoshka navlarining urug'lari tuproqning 10 sm qatlamida harorat 6-7 °S qiziganda ekib boshlanadi. O'zbekistonda ertagi kartoshka tekislik mintaqalarida 10 fevraldan 15 martgacha, tog' oldi mintaqalarida 10-25 martda ekish eng maqbul muddat hisoblanadi. Ekish muddati kechikkanda tuganaklar hosil

bo'lishi yozning jazirama issig'iga to'g'ri keladi, tuganaklar hosil bo'lishi yomonlashadi, hosildorlik kamayadi.

Kartoshka kuzda ekilganda ekish chuqurligi 18-20 sm ga yetkaziladi, bahorda boronalanib tuganak ustidagi tuproq 8-10 sm yupqalashtiriladi.

Ertagi kartoshka tup qalinligi gektariga 57-71 mingtagacha bo'ladi va bunda navning biologik xususiyatlari hisobga olinadi. Ekish 70x20-25 sm sxemada o'tkazilishi ma'qul. Tuganaklar vazni 30-80 g bo'lganda, ekin me'yori 3-3,5 t/ga tashkil qiladi.

T. Ostonaqulov tajribalarida ekish me'yori gektariga 3 t bo'lib vazni 20-30 g urug'lik tuganaklar ekilganda 165,2 s/ga, 30-50 g ekilganda 208,3 s/ga, 50-70 g ekilganda 206,1 s/ga hosil olingan, ekish chuqurligi 6-7 sm. Ekish bilan azotli o'g'itlar yillik me'yorining 20 % fosforli o'g'itlarning qolgan qismi solinadi.

Kartoshka tuganaklarini pushta ustiga ekish ham yaxshi natija beradi. Bunda pushtalar qator oralari 70 yoki 90 sm qilib kuzda olinadi. Pushtaga fevral yoki mart oyining birinchi o'n kunligida nishlatilgan urug'lar 6-7 sm chuqurlikka ekiladi. Qator usti mulchalanganda o'simlik tez rivojlanadi, hosil erta yetiladi. Qator oralarini 90 sm qilib ekish kartoshka yetishtirishdagi ishlarni to'la mexanizatsiyalash uchun imkon yaratadi.

Ekin parvarishi. Ertagi kartoshka urug'lari unib chiqquncha 1-2 boronlash o'tkaziladi. Boronlash qatqaloqni yumshatadi, begona o'tlarni yo'qotadi, maysalarning tez va qiyg'os unib chiqishini ta'minlaydi.

Parvarishda asosiy talab kartoshka tupi atrofidagi tuproqni yumshoq va begona o'tlardan toza holda saqlashdir. Qator oralarini kultivatsiya qilish, tuproqni yumshatish urug'lar unib chiqqandan keyin KRN-4.2, KOR-4.2 kultivatorlarida amalga oshiriladi. Maysalar to'liq unib chiqqandan keyin birinchi kultivatsiya 12-14 sm, keyingilar 14-16 sm chuqurlikda o'tkaziladi. Kultivatsiyalar har yomg'irdan yoki sug'orishdan keyin o'tkaziladi. Kartoshka maydonlarida chopiq o'tkazishda o'tlarni yo'q qilish bilan birgalikda o'simlik atrofiga tuproq tortiladi, natijada issiqlikning zararli ta'siri kamayadi.

Oziqlantirish. Ertagi kartoshka birinchi marta kultivator oziqlantirgichlar yordamida maysalar hosil bo'lgandan keyin gektariga 45-50 kg, ikkinchi marta g'unchalash (shonalash) fazasida 80-85 kg me'yorida azot bilan oziqlantiriladi. Azotli o'g'itlardan ammoniy selitrasi, mochevina, ammoniy sulfat qo'llaniladi. Qator oralarini ishlash va oziqlantirishda KRN-2,8, KON-2,8 PM, KON-2,8 A kultivator o'g'itlagichlaridan foydalaniladi. Hozirda Gollandiyaning «Amak» frezali kultivatorlaridan ham qator oralarini ishlashda keng foydalanilmoqda.

Sug'orish. Ertagi kartoshkani sug'orishda, ularning soni tuproqdagi namlik hisobga olingan holda o'tkaziladi va tuproqdagi namlik ChDNSning 75-85 % idan kam

bo'lmagan holda saqlanishiga erishiladi. Sug'orish sxemasi 1-2-5 bo'lganda 0-1-4 sxemaga nisbatan hosildorlik 2427 % oshgan (Abdukarimov, 1987).

Sug'orish uchun egatlar uzunligi 90-120 m, chuqurligi 18-20 sm qilib olinadi, suv oqimi tezligi 0,10-0,15 l/sekunddan oshmasligi lozim.

Oxirgi sug'orish hosil yig'ishtirishdan 5-2 kun oldin to'xtatiladi.

Zararkunandalarga qarshi kurash. Keyingi yillarda zararkunandalardan kolorado ko'ng'izi ko'p zarar keltirmoqda. Ularga qarshi kurashda oldini oluvchi, agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda kimyoviy usullar ham keng qo'llanilmoqda. Kimyoviy usullardan sherpa 0,2 kg/ga, simbush 0,2 l/ga, zalon 0,3 l/ga me'yorida 400 l suvga aralashtirilib birinchi marta qo'ng'izlar chiqishi bilan, keyin ikkinchi 2-2,5 haftadan o'tgach yana dorilanadi. Dorilash hosil yetishtirishdan 20-30 kun oldin to'xtatiladi.

Hosil yig'ish. Kartoshka palaklari sarg'ayib, tuganaklardagi po'st qattiqlashib, sidirilmaydigan bo'lganda hosilni yig'ishtirishga kirishiladi. Tuproqdagi namlik 14-16 % bo'lishi kerak.

XULOSA

Hozirgi kunda kartoshka hosildorligini oshirishning asosiy vazifasi eng sifatli urug'lik navlaridan, samarali texnologiyalardan va texnologik operatsiyalarning bajarilish sifatini ta'minlaydigan yuqori unumli texnikalardan foydalanish hisoblanadi. Hosildorlikni oshirishning ya'na bir omili mashinalar quvvatidan to'g'ri foydalanish, mahalliy xududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan horij texnikalarni keng qo'llash. Kartoshka yetishtirish maydonlarni optimallashtirish va kichik, ixcham texnikalarni yaratish va ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR

1. Kolchina L.M. Texnologii i oborudovanie dlya proizvodstva kartofelya. M.: FGBNU —Rosinformagrotex , 2014. – 164 s.
2. Norchaev R. Kartoshkachilik mashinalarining konstruksiyasi, nazariyasi va hisobi monografiya-Toshkent:«Zresypt MesPa Ogoir»2015. - 228 b.
3. Tubolev S.S. i dr. Mashinno'e texnologii dlya proizvodstva kartofelya.- M.: Agrospas, 2010, - 316 s.
4. Batalova G.A. Ispolzovanie elementov sortovoy texnologii dlya raskro'tiya biologicheskogo potentsiala sortov G'Batalova G.A., Budina E.A. i dr.G'G' Agrarnaya nauka Evro-Severo-Vostoka.q2007.-№ 9.-S. 23- 28.
5. Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va maxsulot etishtirish bo'yicha namunaviy texnologik kartalar 2016-2020 yillar uchun. II qism.Toshkent – 2016.- 215 s